



EKOLOGIK QONUN TALABLARINI BUZGANLIK UCHUN JAVOBGARLIK AMERIKA, GERMANIYA TAJRIBASI

Xoshimov Azimjon Latipovich
Toshkent davlat Transport unversiteti
2-kurs talabasi

Annotatsiya: ekalogik huquq bugungi kunda O'zbekiston Respublikasining mustaqil huquq tizimida o'z o'rni va salohiyati, alohida yo'nalish va xususiyatlarga ega bo'lgan huquq sohasi hisoblanadi. Tabiatni asrash insoniyatni asrashdir. Ekalogiga atamasi mazmunidan ham ma'lumki, butun tabiat o'z uyimiz. Demak, qilayotgan xatolarimizdan bir kun kelib o'zimiz jabir ko'ramiz.

Kalit so'zlar: O'zbekistonda, atrof, suv, intizomiy javobgarlik, ma'muriy, huquq, qonun, fuqarolik, javobgarlik, tabiiy, muhofaza, atmosfera.

O'zbekistonda tabiat boyliklarini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishga oid qonun-qoidalar, yuridik normalar ishlab chiqilgan. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida "Fuqarolar atrof muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar" (50-modda), deb qayd etilgan. O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi (1998-yil 30-aprel), "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida" (1992-yil 9 dekabr), "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida" (2004-yil 3 dekabr), "Yer osti boyliklari to'g'risida" (2002-yil 13 dekabr), "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida" (1996-yil 27 dekabr), "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida" (1993-yil 6-may), "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida" (1997-yil 26 dekabr), "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida" (1997-yil 26 dekabr), "Davlat yer kadastri to'g'risida" (1998-yil 28 avgust), "O'rmon to'g'risida" (1999-yil 15-aprel)gi va boshqa qonunlarda ekologiya sohasidagi huquqiy normalar o'z ifodasini topgan. Daryolar, ko'llar va boshqa havzalar hamda suv manbalarini sanoat, qishloq xo'jaligi korxonalar va tashkilotlaridan, kommunal hamda boshqa korxonalar va tashkilotlardan chiqadigan tozalanmagan va zararsizlantirilmagan oqova suvlar, kimyoviy moddalar, chiqindi va chiqitlar bilan ifloslantirish natijasida kishilar sog'lig'iga, hayvonot va o'simlik dunyosiga yoki qishloq xo'jalik ishlab chiqarishiga zarar yetkazilsa, yoxud zarar yetkazilishi aniq bo'lsa, shuningdek havo yoki tuproqni sanoat ishlab chiqarishining kishilar sog'lig'i uchun zararli bo'lgan chiqindilari, kimyoviy moddalar bilan ifloslantirish, bu xatti-harakatlar xuddi shunday



qoidabuzarlik uchun ma'muriy jazo choralari ko'rilganidan keyin sodir etilsa, —bir yilgacha muddatga axloq tuzatish ishlariga jalb etish yoki uch million so'mgacha jarima solish bilan jazolanadi.

Xuddi shunday xatti-harakatlar og'ir oqibatlariga olib kelsa, — besh yilgacha muddatga ozodlikdan mahrum etish yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlariga jalb etish bilan jazolanadi". 25.08.2021-yildagi "O'zbekiston respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kirirtish to'g'risida" gi O'RQ-711-sonli qonun qabul qilindi. Mamuriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda suv ob'yektlariga oqindi suvlarni oqizishga yo'l qo'yish shartlari to'g'risidagi talablarni buzganlik uchun fuqarolarga 3 BHMdan 5 BHMgacha, mansabdor shaxslarga esa 5 BHMdan 10 BHMgacha jarima solinishi belgilandi. Suvlarning hamda suv ob'yektlarining holatiga ta'sir ko'rsatuvchi gidrotexnika ishlarini va boshqa ishlarni o'zboshimchalik bilan bajarganlik uchun ham xuddi shunday jazo choralari qo'llaniladi. Dala va aholi punktlarida ang'iz, xazon va shox-shabbalarni yoki o'simliklarning boshqa qoldiqlarini yoqib yuborish, atmosfera havosini zararli moddalar bilan ifloslantirishga olib kelsa, xuddi shunday huquqbuzarliklarga ma'muriy jazo chorasi qo'llanilgandan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa, fuqarolarga 5 BHMdan 7 BHMgacha, mansabdor shaxslarga esa – 10 BHMdan 15 BHMgacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi. Hayvonlarga ham nisbatan shavqatsizlik, o'lim va mayib bo'lishiga olib keladigan oqibatlar, shavqatsiz munosabatlar uchun javobgarlik jinoyat kodeksida ham belgilandi.

1995 yilga kelib Germaniyada "toza ishlab chiqarish" siyosati vujudga keldi. Germaniyada ekologiyaning ahamiyati hayratlanarli. 90-yillarda Yashillar partiyasining ta'siri ostida atrof-muhitni tozalash va parvarish qilishning muqobil usullarini joriy etish boshlandi. Tabiatni muhofaza qilish sohasidagi axborot, ta'lim va jamoatchilikni targ'ib qilish tadbirlari uchun har yili taxminan 5 million yevro ajratiladi. Germaniyada ekologik ta'lim barcha talabalar uchun majburiydir Germaniya konstitutsiyasining 20a-moddasi ya'ni (Hayot va hayvonlarning tabiiy asoslarini himoya qilish] “

Davlat kelajak avlodlar oldidagi mas'uliyatini ham yodda tutgan holda, hayot va hayvonlarning tabiiy asoslarini qonun hujjatlari bilan, qonun va adolatga muvofiq, ijro etuvchi va sud organlari orqali konstitutsiyaviy tuzum doirasida himoya qiladi.

AQSh Kongressi atrof-muhitga oid qonun va siyosatni tartibga soluvchi muhim qonun hujjatlarini qabul qildi. Quyida siz eng muhim qonun hujjatlarini topasiz. CAAning "Kongress xulosalari va maqsad deklaratsiyasi" ga ko'ra, qonun "millatning havo resurslarini himoya qilish va sifatini oshirish" va tadqiqotni



rag'batlantirish va havoga qarshi kurashda shtat va mahalliy hukumatlarga yordam ko'rsatish uchun ishlab chiqilgan. CWAning "Kongressning maqsadlar va siyosat deklaratsiyasi"da aytilishicha, "ushbu bobning maqsadi - xalq suvlarining kimyoviy, fizik va biologik yaxlitligini tiklash va saqlashdir". Qonun tadqiqot, ijro etish va suv ifloslanishini oldini olish bo'yicha harakatlarda davlat yordamini nazarda tutadi. RCRA AQShda qattiq chiqindilarni tartibga solish uchun qabul qilingan. "Kongress xulosalari" bo'limida boshqa ekologik qonunlar va qoidalarning (masalan, "Toza havо to'g'risida" gi qonuni va "Toza suv to'g'risida" gi qonun) qabul qilinishi tufayli qattiq maishiy chiqindilar ko'proq paydo bo'lganligi va bu borada ko'proq tartibga solish zarurligi ko'rsatilgan xavfli chiqindilarni utilizatsiya qilish. Atrof-muhit va tabiiy resurslar to'g'risidagi qonun odamlar va tashkilotlarning atrof-muhit qismlaridan qanday foydalanishini tartibga soladi. Bu quyosh nuri, shamol, suv, tuproq va er osti minerallar va moddalar, masalan, neft va tabiiy gazni o'z ichiga oladi. AQSH da atrof-muhit qonuni atrof-muhitning bunday qismlaridan foydalanish va muhofaza qilish bo'yicha majburiyatlar, mas'uliyatlar va potentsial majburiyatlarni yaratadi.

Milliy ekologik siyosat to'g'risidagi qonun (NEPA)

NEPAning o'tishi Atrof-muhitni muhofaza qilish agentligini yaratishga olib keldi. Qonunning boshida joylashgan "Kongressning maqsad deklaratsiyasi" bo'limida NEPAning maqsadi quyidagicha tushuntiriladi: "Inson va uning atrof-muhit o'rtasida samarali va yoqimli uyg'unlikni rag'batlantiradigan milliy siyosatni e'lon qilish; odamlarga zarar yetkazilishining oldini olish yoki bartaraf etishga qaratilgan sa'y-harakatlarni rag'batlantirish. atrof-muhit va biosfera va inson salomatligi va farovonligini rag'batlantirish; xalq uchun muhim bo'lgan ekologik tizimlar va tabiiy resurslar haqidagi tushunchalarni boyitish; va atrof-muhit sifati bo'yicha kengash tashkil etish. EPK NEPA bilan jiddiy shug'ullansa-da, Oq uy barcha agentliklar bo'ylab NEPAning joriy etilishini nazorat qiluvchi Atrof-muhit sifati bo'yicha kengashni ham tayinlaydi.

Dengiz muhofazasi, tadqiqot va qo'riqxonalar to'g'risidagi qonun. MPRSA-oceanlarda ahlat tashlashni tartibga solish uchun qabul qilingan. "Kongress xulosasi, siyosati va maqsad deklaratsiyasi" bo'limida "Amerika Qo'shma Shtatlarining okean suvlariga barcha turdagi materiallarni tashlashni tartibga solish siyosati" keltirilgan. MPRSA qo'shimcha ravishda dampingni tartibga solish va ushbu qoidalarning bajarilishini ta'minlash uchun asos yaratadi.

Yo'qolib borayotgan turlar to'g'risidagi qonun. ESA - Qo'shma Shtatlardagi faunani saqlashni boshqaradi. ESAning "Siyosat" bo'limida aytilishicha, "Kongress



siyosati barcha federal idoralar va idoralar yo'qolib ketish xavfi ostida turgan turlarni va yo'qolib ketish xavfi ostida turgan turlarni saqlashga intiladi". Bundan tashqari, akt turli idoralar a'zolarini ishchi guruhga joylashtirishni nazarda tutadi, ammo yo'qolib ketish xavfi ostida turgan turlar ro'yxatini qondiradigan hayvonlarni yakuniy aniqlash Ichki ishlar kotibi yoki savdo kotibi tomonidan amalga oshiriladi. AQSh AQShning baliq va yovvoyi tabiat xizmati va okeanik va atmosfera ma'muriyati tomonidan nazorat qilinadi. Amerika Qo'shma Shtatlarining atrof-muhit qonuni inson salomatligini muhofaza qilish va Qo'shma Shtatlarning tabiiy muhitini yaxshilash uchun huquqiy standartlarga taalluqlidir.

Tabiatni muhofaza qilish tabiat va uning boyliklaridan oqilona foydalanishga, tabiatni inson manfaatlarini ko'zlab ongli ravishda o'zgartirishga, abiat boyliklari va uning musaffoligi, go'zalligini saqlab qolish va uni yanada boyitish bu biz insonlarning qo'lida. Hozirgi vaqtda inson yashab, to'xtovsiz munosabatda bo'lib kelayotgan tabiiy muhit uzoq geologik davrlar (4,5—4,7 milliard yil) mobaynida bir qancha omillarning birgalikda ta'sirida, ya'ni Quyosh nuri, yerning massasi, gravitatsiya kuchi, ko'lami, aylanma harakatlari, tektonik harakatlar, havo va suv qobiqlarining vujudga kelishi va o'zgarishi, ekzogen jarayonlar ta'siri, organik dunyoning paydo bo'lishi va taraqqiyoti ta'sirida tarkib topgan. Har qanday tirik mavjudot o'z atrofini o'rab turgan tabiiy muhit bilan o'zaro ta'sirda bo'ladi, undan o'ziga kerakli narsalarni oladi, shu muhitda moslashadi. Inson tabiiy sharoit va boyliklardan ko'p maqsadlarda foydalanadi. Bu esa tabiatni yanada muhovaza qilishni talab etadi. Tabiiy boyliklardan oqilona foydalanishdan tabiatda ro'y beradigan jarayonlarning o'zaro bog'likligi va rivojlanishi qonuniyatlari haqidagi bilimlar katta ahamiyatga ega. Hozirgi vaqtda Tabiatni muhofaza qilishni ta'minlash masalalari nazariy jihatdan ishlab chiqilgan. Lekin bularni amalga oshirish juda katta mablag' sarflashni talab qiladi. Buning ustiga qirg'in qurollarini ishlab chiqarish, ularni saqlash ham tabiiy muhitning ifloslanishiga olib keladi. Shu nuqtai nazardan qirg'in qurollarni ishlashni taqiqlash, borlarini yo'qotish ham tabiat muhofazasida katta ahamiyatga ega. Inson va tabiat bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Ammo biz ona tabiatni yildan-yilga borgan sari yemirib bormoqdamiz. Katta-katta zavod va fabrikalar, neft zavodlari, konlar, va boshqa inson qo'li bilan yaratilgan barcha (tabiat)ga zararli narsalar tabiatni zararlanishiga olib keladi. Insoniyat birgalashib tabiatni asrashimiz kerak.



Foydalanilgan manbalar:

1. https://en.m.wikipedia.org/wiki/United_States_environmental_law
2. <https://guides.loc.gov/environmental-law/federal-law>
3. [tsul_lib.uz](https://tsul.lib.uz)
4. <https://library.academy.uz>
5. https://www.gesetze-im-internet.de/englisch_ggg
6. “Xalq so’zi” gazetasi.
7. Ekologik nazoratni muhofaza qilish to’g’risidagi qonun. <https://lex.uz/zcts/-2304953>
8. <https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/ekalogiya/ekalogik-qonunlar-va-ularning-xususiyatlari>